QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2021- YIL YANVAR-IYUN***
***(DASTLABKI MA'LUMOT)***

**Sanoat statistikasi bo'limi**
**Tel.: (75)-221-32-36**

# Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8972,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 125,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (64,9 %) ni tashkil etdi.







*B-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat, **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oshishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 71,6 % ga ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 18,7 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 5,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 1,8 % ga kamaydi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 954,8 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,6 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da**







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Tabiiy qumlar**




**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**




**Neft**




**Propan, Butan**




**Chaqiq tosh**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy qum, ming t. | 44,8 | 50,9 | 6,1 |
| Neft, ming t. | 13,8 | 14,7 | 0,9 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 1267,2 | 715,8 | -551,4 |
| Gaz kondensati, ming t. | 142,1 | 76,0 | -66,1 |
| Chaqiq tosh, ming t. | 60,6 | 28,7 | -31,9 |
| Propan va butan, ming t. | 73,6 | 69,4 | -4,2 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5826,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 64,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*






O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2020- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 20,6 % (32,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,3 %  (3,7 %) va quyi texnologiyalisi – 42,0 % (63,4 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi – 0,5 % (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 5,0 marta), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,5 % (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,8 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi – 2,4 % (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,6 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,0 % (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,1 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 20,4 %  (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,1 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 72,2 ming tonna paxta chigiti (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 154,6 %), 48,2 ming tonna paxta tolasi (152,1 %), 7,1 ming tonna Mel (120,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Paxta chigiti**




**Paxta tolasi**




**Paxta linti**




**Kaliy xlorid**




**Asfaltli aralashmalar**




**Oltingugurt**




**Og‘irligi 0,94 kam bo‘lmagan polietilen**




**Kalava ip**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Aroq**




**Uzum vinosi**



2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 18,2 ming tonna Asfaltli aralashmalar ishlab chiqarilib (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 78,4 % ga oshgan), 94,6 ming tonna Kaliy xlorid (94,4 %), 0,5 ming tonna Oltingugurt (96,7 %), 68,1 ming tonna Og'irligi 0,94 dan kam bo'lmagan polietilen (101,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Og'irligi 0,94 dan kam bo'lmagan polietilen, ming t.** | 67,0 | 68,1 | 1,1 |
| **Asfaltli aralashmalar, ming t.** | 4,8 | 18,2 | 13,4 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.** | 77,1 | 75,4 | -1,7 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 30,8 | 48,2 | 17,4 |
| **O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.** | 4,4 | 1,6 | -2,8 |
| **Kaliy xlorid, ming t.** | 100,2 | 94,6 | -5,6 |
| **Plastmassa quvurlar, ming t.** | 2,6 | 1,7 | -0,9 |
| **Ip kalava, ming t.** | 14,5 | 16,3 | 1,8 |
| **Oltin gugurt, ming t.** | 0,5 | 0,5 | 0,0 |

## Metallurgiya sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

FHI
% da






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 30,3 % ga pasaygan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 5,0 martaga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 42,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 18,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 124,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



FHI
% da



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 84,2 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,9 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 1260,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 140,3 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,2 % ga koʻpaydi va ishlab chiqarish hajmi 43,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 97,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,5 % ni, fizik hajm indeksi 23,8 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 2200,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



**FHI**
***% da***




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*



**FHI**
***% da***




2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % fizik hajm indeksi 91,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 217,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 33,5 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 20,4 % ni, fizik hajm indeksi 116,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1834,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 53,3 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 3,1 martaga o‘sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 7,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2124,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (23,8 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 71,6 % ga oshganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 4886,4 | 6704,0 | 1817,6 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 1590,3 | 1523,0 | -67,3 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 0,3 | 5,8 | 5,5 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln.so‘m* | 15,1 | 24,5 | 9,4 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 162,5 % ga shuningdek, Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 18,8 martaga o‘sishi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1912,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ga, uning jami sanoatdagi ulushi 21,3 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,4 % (2020- yil yanvar-iyun oylarida 3,2 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib, 25,4 % ni, shuningdek, Chiroqchi tumani 13,4 % ni, Shahrisabz tumani 8,1 % ni, Yakkabog‘ tumanida 7,8 % ni hamda Koson tumani 7,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (104,5 %) darajasidan ko‘p Shahrisabz tumani (117,9 %), Qamashi tumani (114,3 %), Qarshi tumani (113,0 %) va Muborak tumanida (112,6 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 1912,8 | 100,0 | 104,5 |
| Qarshi sh. | 486,4 | 25,4 | 105,5 |
| Shahrisabz sh. | 126,7 | 6,6 | 100,4 |
| G‘uzor | 49,5 | 2,6 | 106,2 |
| Dehqonobod | 35,7 | 1,9 | 103,8 |
| Qamashi | 74,8 | 3,9 | 114,3 |
| Qarshi | 104,2 | 5,4 | 113,0 |
| Koson | 146,0 | 7,6 | 100,6 |
| Kitob | 102,7 | 5,4 | 105,6 |
| Mirishkor | 68,0 | 3,6 | 101,3 |
| Muborak | 37,1 | 1,9 | 112,6 |
| Nishon | 84,1 | 4,4 | 109,2 |
| Kasbi | 39,0 | 2,0 | 100,7 |
| Chiroqchi | 255,7 | 13,4 | 102,0 |
| Shahrisabz | 154,4 | 8,1 | 117,9 |
| Yakkabog‘ | 148,5 | 7,8 | 100,0 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib 23,0 % shuningdek, Chiroqchi tumani 17,6 %, Shahrisabz tumani 8,4 % ni, hamda Yakkabog‘ tumani 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Qarshi sh. (124,5 %), Shahrisabz (114,1 %), Qamashi (109,4 %) hamda Qarshi (104,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 724,7 | 100,0 | 112,5 |
| Qarshi sh. | 166,7 | 23,0 | 124,5 |
| Shahrisabz sh. | 35,9 | 5,0 | 95,3 |
| G‘uzor | 22,3 | 2,6 | 100,0 |
| Dehqonobod | 15,5 | 2,1 | 93,6 |
| Qamashi | 37,4 | 5,2 | 109,4 |
| Qarshi | 41,1 | 5,7 | 104,4 |
| Koson | 53,6 | 7,4 | 100,3 |
| Kitob | 29,9 | 4,1 | 86,6 |
| Mirishkor | 20,0 | 2,8 | 84,6 |
| Muborak | 11,4 | 1,6 | 97,8 |
| Nishon | 29,3 | 4,0 | 77,8 |
| Kasbi | 14,6 | 2,0 | 86,4 |
| Chiroqchi | 127,3 | 17,6 | 99,8 |
| Shahrisabz | 60,7 | 8,4 | 114,1 |
| Yakkabog‘ | 59,1 | 8,1 | 99,6 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to‘g‘ri kelib, 26,9 % ni, shuningdek, Chiroqchi tumani 10,8 % ni, Shahrisabz tumani esa 7,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Nishon tumani (128,7 %), Kitob (121,6 %), Muborak (120,6 %), Shahrisabz (120,4 %) hamda Qamashi (119,8 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 1188,1 | 100,0 | 100,5 |
| Qarshi sh. | 319,7 | 26,9 | 101,5 |
| Shahrisabz sh. | 90,7 | 7,6 | 102,6 |
| G‘uzor | 27,1 | 2,3 | 112,0 |
| Dehqonobod | 20,2 | 1,7 | 113,2 |
| Qamashi | 37,4 | 3,1 | 119,8 |
| Qarshi | 63,2 | 5,3 | 119,4 |
| Koson | 92,4 | 7,8 | 100,2 |
| Kitob | 72,8 | 6,1 | 121,6 |
| Mirishkor | 48,0 | 4,0 | 110,4 |
| Muborak | 25,7 | 2,2 | 120,6 |
| Nishon | 54,8 | 4,6 | 128,7 |
| Kasbi | 24,4 | 2,1 | 111,9 |
| Chiroqchi | 128,4 | 10,8 | 107,4 |
| Shahrisabz | 93,7 | 7,9 | 120,4 |
| Yakkabog‘ | 89,5 | 7,6 | 100,2 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1418,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 15,8 % ni tashkil etdi.

## Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati. | 8972,7 | 100,0 | 125,6 |
| Qarshi sh. | 1376,7 | 16,8 | 119,6 |
| Shahrisabz sh. | 147,4 | 1,6 | 105,2 |
| G‘uzor | 1739,2 | 18,1 | 116,0 |
| Dehqonobod | 268,1 | 3,0 | 102,5 |
| Qamashi | 195,2 | 2,2 | 107,0 |
| Qarshi | 574,3 | 6,4 | 129,0 |
| Koson | 411,0 | 4,6 | 100,2 |
| Kitob | 133,4 | 1,5 | 102,5 |
| Mirishkor | 258,6 | 2,9 | 133,9 |
| Muborak | 239,0 | 2,7 | 72,9 |
| Nishon | 2280,7 | 27,7 | 177,3 |
| Kasbi | 596,3 | 6,6 | 2,2 m |
| Chiroqchi | 312,7 | 3,5 | 107,5 |
| Shahrisabz | 178,0 | 2,0 | 100,5 |
| Yakkabog‘ | 262,1 | 2,9 | 107,6 |

## <u>Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati</u> *% da*




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,2 martaga), Nishon (177,3 %), Mirishkor (133,9 %), Qarshi (129,0 %), Qarshi sh. (119,6 %) va G'uzor (116,0 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

### Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 27,7 % i) hamda G'uzor (18,1 %), Qarshi sh. (16,8 %), Kasbi (6,6 %) va Qarshi (6,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Kitob (1,5 %) hamda Shahrisabz shahriga (1,6 %) to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (14 592,1 ming so‘m), G‘uzor (8 333,4 ming so‘m), Qarshi shahrida (4 927,4 ming so‘m) hamda Kasbi (2 972,6 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2 678,0 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | Istemol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 2 678,0 | 570,9 |
| Qarshi sh. | 4 927,4 | 1 741,0 |
| Shahrisabz sh. | 1 045,2 | 898,4 |
| G‘uzor | 8 333,4 | 237,1 |
| Dehqonobod | 1 781,8 | 236,9 |
| Qamashi | 707,9 | 271,2 |
| Qarshi | 2 260,0 | 410,2 |
| Koson | 1 407,0 | 499,9 |
| Kitob | 499,0 | 383,9 |
| Mirishkor | 2 119,4 | 557,4 |
| Muborak | 2 694,3 | 418,5 |
| Nishon | 14 592,1 | 538,3 |
| Kasbi | 2 972,6 | 194,3 |
| Chiroqchi | 740,4 | 605,4 |
| Shahrisabz | 792,9 | 687,6 |
| Yakkabog‘ | 981,4 | 556,2 |

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 570,9 ming so‘m bo‘lgani holda, Qarshi sh. – 1 741,0 ming so‘mni, Shahrisabz sh. – 898,4 ming so‘mni, Shahrisabz tumanida – 687,6 ming so‘mni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda**
**kichik biznesning ulushi**

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 037,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,7 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 98,1 %), Yakkabog‘ (85,4 %), Chiroqchi (83,5 %), Shahrisabz (81,0 %) tumanlarida va Shahrisabz shahrida (80,2 %) kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Nishon (4,2 %), G‘uzor (4,7 %), Kasbi (6,6 %) va Dehqonobod (14,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 4638 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 861 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 18,6 % i) Qarshi shahriga, 514 tasi (11,0 %) Kitob tumaniga, 423 tasi (9,1 %) Yakkabog‘ tumaniga, 397 tasi (8,6 %) Chiroqchi tumaniga, 363 tasi (7,8 %) Shahrisabz shahriga, 326 tasi (7,0 %) Qarshi tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 959 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 159 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 16,6 %) Qarshi shahrida, 86 tasi (9,0 %) G‘uzor tumanida, 84 tasi (8,6 %) Kasbi tumanida, 81 tasi (8,4 %) Yakkabog‘ tumanlarida tashkil etildi.

## Viloyat sanoat korxonalarining mahalliylashtirish darajasi

*(2021- yil 1- iyul holatiga koʻra)*

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham oʻz ta’sirini koʻrsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 105 ta loyiha boʻyicha 49 ta korxonada 123,5 mlrd soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan, shuningdek Eksport qilingan mahalliylashtirish mahsulotlari hajmi 2,6 mln (AQSH doll) tashkil etdi va 68 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi.